

GENDER TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mantayeva Dilnura

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Talaba

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender tilshunosligining paydo bo'lishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi tahlil etiladi. Unda til va jins o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy asoslari hamda feminizm harakatining ilmiy ta'siri yoritilgan. Turli tilshunos olimlar qarashlariga tayangan holda gender lingvistikasining uch asosiy bosqichi izchil bayon qilingan. Shuningdek, R. Lakoff, S. de Bovuar va M. Fuko kabi tadqiqotchilar fikrlari orqali gender muammolari tilshunoslikda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangani ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: gender lingvistika, feministik qarashlar, biologik determinizm, ijtimoiy konstruktivizm, androsentrizm, postmodernizm, gender stereotiplari.

Til va jins o'rtasidagi bog'liqlik qadim zamonlardan boshlangan bo'lib, bunga grammatik jins kategoriyasi misol bo'la oladi. Ilgari tilshunoslikda biologik jins va grammatik jins o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjud degan qarashlar ustun bo'lgan. Bu esa gender masalalari feminizm shakllanishidan oldin ham ilmiy e'tibordan chetda qolmaganini anglatadi. Masalan, V. fon Gumbolt o'z asarlarida jinslar o'rtasidagi farqlar va ularning tabiatga ta'sirini ko'rib chiqib, inson va tabiatning yaxlitligini ta'kidlagan. U erkak va ayolning jamiyatdagi o'rnini va vazifalarini ham alohida izohlagan.

Gender nazariyasining shakllanishida feministik harakat muhim omil bo'ldi. XX asrning 60-70 yillarida AQSH va Yevropada feministik qarashlar keng yoyilib, jamiyatdagi patriarxal tizim tanqid qilina boshlandi. Bu jarayonda til ham tanqid ostiga olinib, unda erkaklar markaziy o'rinda tasvirlangani ilgari surildi. Feministlar ayollarning mustaqil ovozini tan olish va tilni qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidladilar.

“Gender” tushunchasi dastlab tabiiy fanlarda qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik ijtimoiy fanlarga kirib keldi. Ushbu atama 1955-yilda J. Mani tomonidan kiritilgan bo'lib, R. Stoller uni ijtimoiy va psixologik jihatdan kengroq izohlab berdi. U genderni biologik jinsdan farqli ravishda jamiyatdagi ijtimoiy rol sifatida talqin qildi.

Vaqt o'tishi bilan gender tushunchasi tilshunoslikka ham kirib kelib, mustaqil tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Bu sohada turli yosh va jins vakillarining nutqi o'rganila boshlandi. A.V. Kirilina gender tadqiqotlarini ikki asosiy yo'nalishga ajratadi: jinsning tilda ifodalanishi va erkaklar hamda ayollarning nutqiy xatti-harakatlari.

Ushbu bosqichlar orqali ko'rish mumkinki, gender tushunchasi dastlab biologik omillarga asoslangan holda talqin qilingan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan uning ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlari ham muhim ilmiy mavzuga aylangan. Ayniqsa, so'nggi bosqichda gender masalalari tilshunoslikning ham mustaqil izlanish sohasi sifatida shakllanib bordi.

Birinchi bosqich jinsiy farqlarni asosan biologik asoslar bilan izohlashga tayanadi.

Gender tadqiqotlari tarixining bosqichlari

Bosqich nomi	Davr	Xususiyatlari
Biologik determinizm bosqichi	XX asrgacha bo'lgan davr	Jinsiy farqlar asosan biologik xususiyatlar orqali tushuntirilgan. Erkak va ayol o'rtasidagi tafovutlar tug'ma, o'zgarmas va tabiiy hol sifatida qabul qilingan.
O'tish davri bosqichi	XX asrning birinchi yarmi	Biologik farqlar inkor etilmagan holda, ularning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi haqida dastlabki fikrlar ilgari surilgan. Genderning ijtimoiy konstruktsiya ekanligi to'g'risida dastlabki ilmiy qarashlar shakllana boshlagan.
Sof gender tadqiqotlari bosqichi	XX asrning ikkinchi yarmi va undan keyin	Genderga mustaqil ilmiy kategoriya sifatida qarala boshlandi. Jins va gender o'rtasidagi farq aniq belgilandi. Tilshunoslikda, sotsiologiyada, psixologiyada genderga oid maxsus tadqiqotlar paydo bo'ldi.

Bu davrda erkak va ayol orasidagi tafovutlar tug'ma, o'zgarmas va tabiiy hol sifatida qabul qilingan bo'lib, ijtimoiy yoki madaniy omillar deyarli inobatga olinmagan. Ushbu tillarda ayollar tilida ishlatiladigan so'zlar, talaffuz shakllari yoki iboralar erkaklar nutqidan farq qilgan. Shunga qaramay, bu tadqiqotlar uzoq davom etmagan va ilmiy jamoatchilikda chuqur qiziqish uyg'otmagan. XVII asrda kashf etilgan ayrim ekzotik tillarda erkaklar til varianti "ideal me'yor" sifatida qaralgan, ayollar varianti esa "me'yordan og'uvchi", "kemtik" shakl sifatida baholangan.

Ikkinchi bosqich til va jins munosabatlari borasidagi izlanishlarda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. XX asrning birinchi yarmida olib borilgan tadqiqotlar tilshunoslikdagi gender yondashuvlarining shakllanishi uchun nazariy poydevor vazifasini bajardi. Bu davrda E.Sepir, O.Yespersen, F.Mautner kabi mashhur olimlar til va jins orasidagi bog'liqlikni har tomonlama tahlil qilishga harakat qilganlar. Ularning tadqiqotlari natijasida tilshunoslikda postmodernistik yondashuv shakllanib, bu oqim genderlikning yagona universal qonuniyatlar asosida mavjud bo'lishini inkor etgan. Postmodernizm doirasida har bir madaniyat, til va jamiyat o'ziga xos gender normalariga ega deb hisoblangan. Bu qarash esa til va gender o'rtasidagi bog'liqlikni yanada kontekstual va nisbiy nuqtayi nazardan o'rganishga zamin yaratdi.

Uchinchi bosqichda M.Fuko, R.Lakoff, S.de Bovuar, L.Push, T.van Deyk va R.Vodak kabi olimlar gender o'rganishlariga yangi yo'nalishlar qo'shdilar. Feministlarning faoliyati jadallashgan bu davrda ular tillardagi patriarxal hukmronlikka qarshi kurashdilar. Mazkur feministik g'oyalarning shakllanishida S.de Bouvar va M.Fukoning asarlari muhim rol o'ynadi. Ularda jins tushunchasi ustunlik qilayotgan ijtimoiy omillar biologik omillar ustidan hukmron bo'lishi olg'a suriladi. Jumladan, S.de Bouvarning 1949-yilda nashrdan chiqqan "Second sex" (Ikkinchi jins) asarida "One is not born but becomes a woman" (French: "On ne naît pas femme, on le deviant") deya ta'kidlangan iborasi biologik va ijtimoiy jins o'rtasidagi tafovut va unga tegishli stereotiplarni ifodalab berdi. Uning g'oyalari nafaqat jinlar o'rtasidagi farqlarni tushunishga yordam berdi, balki ularni yo'q qilish yo'lida kurashish uchun asos yaratdi. Gender nuqtai nazaridan til tushunchasi R. Lakofning "Language and women's place"

(Til va ayolning mavqei) asarida ilk marotaba talqin qilinib, unda “ayol tili” atamasi birinchi marotaba ishlatilgan. Lakoffning fikricha, ayollar nutqida “deficit model” (kamchilik modeli) mavjud bo‘lib, bu modelga ko‘ra, ayollar nutqi erkaklar nutqidan pastroq va ishonchsiz hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish AQSH va Germaniyada L.Push va S.Tremel-Plets, N.Ferklou, T.van Deyk, R.Vodak kabi olimlarning izlanishlari orqali yanada rivojlandi. Ularning barchasi hamma jamiyatlardagi tillarda “androsentrizm”, ya’ni olamning erkaklar tasviri asosida qurilgan degan xulosaga keldilar. Shundan keyin, feministik tilshunoslik tarafdorlari tilni me’yorga solish lozimligini talab qilib chiqdilar. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida tilshunoslikda bir qancha yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Feministik tilshunoslik, sotsiologiyaviy gender tadqiqotlari, jinsning psixologiyaviy tadqiqi, erkak va ayollar nutqining psixologiyaviy xususiyatlari, genderlikning milliy-madaniy tadqiqi kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida bayon etilganlardan ko‘rinadiki, gender tilshunosligi insonning tildagi jinsiy o‘ziga xosliklarini o‘rganadigan mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib, ko‘p bosqichli evolyutsion jarayonni bosib o‘tgan. Dastlab jinsiy farqlar biologik omillar bilan izohlangan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy, madaniy va psixologik determinantlar asosiy tahlil ob’yektiga aylangan. Feministik oqimlar va postmodernistik qarashlar ta’sirida tilga ijtimoiy adolat va tenglik mezonlari nuqtayi nazaridan yondashish zarurati yuzaga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff R. Language and Woman’s Place (1975).
https://web.stanford.edu/class/linguist156/Lakoff_1975.pdf
2. The Archaeology of Knowledge Foucault, M. (1969).
https://monoskop.org/images/9/90/Foucault_Michel_The_Archaeology_of_Knowledge.pdf
3. John Money. (1955). Gender tushunchasi bo‘yicha tadqiqotlar
<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC2582082/>
4. Ruzieva R.A. (2025). Gender Linguistics in Uzbek Linguistics Research.
<https://inlibrary.uz/index.php/ajps/article/view/84422>
5. Chutpulatov A. (2016). Gender and Language in Uzbek Linguistics.
<https://journals.rudn.ru/semiotics-semantics/article/view/14019>